

WAYS AND MECHANISMS OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN MUSIC CULTURE COURSES CONTENT AND SIGNIFICANCE

Salimova Dilafruz

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Faculty of Music Culture

Annotation: In this article, it is noted that the role of music education in the formation of a fully developed and highly spiritual person is invaluable, and for this it is necessary to strengthen the interdisciplinary integration of music lessons in an interesting and meaningful way. desired

Keywords: Melody, song, music, song singing, aesthetic education, Abu Nasr Farobi, Alisher Navoi, teacher, choral singing, music literacy, listening to music.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA FANLARARO INTEGRATSİYALASHUV YO'LLARI VA MEXANİZMLARI MAZMUNI VA MOHIYATI

Salimova Dilafruz

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti
Musiqo madaniyati fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada to‘g‘ri olib borilgan musiqa tarbiyasi yosh avlodni har tomonlama rivojlangan komil va yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllanishidagi o‘rni beqiyos ekanligi, buning uchun esa musiqa darslarini qiziqarli va mazmunli o‘tishda fanlararo integratsiyalashuvini kuchaytirish lozimligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Kuy, qo‘sinq, musiqa, qo‘sinq kuylas, estetik tarbiya, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, o‘qituvchi, xor bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash.

Insoniyat qadim-qadimdan kuy va qo‘sinqni insonni ezgulik, yaxshilik kabi fazilatlar olamiga yetaklaydigan, insonga najot va taskin beruvchi, uni darddan, iztiroblardan xalos qiluvchi, inson qalbini to‘g‘ri yo‘lga chorlaydigan-xudbinlik, xiyonotkorlik, yovuzlik, ikki yuzlamachilik, yolg‘onchilik, xasadgo‘ylik, takabburlik, buzg‘unchilik, qo‘yingki barcha shaytoniy illatlardan insonlarni asraydigian qudrat deb tan olingan. Kuy va qo‘sinq tarbiya manbai bo‘lib inson odobi, axloqi, sharm, ibo va xayosini tarbiyalaydi, millatning qiyofasi, ruxiyati va shaklu shamoyilini belgilaydi, deb qaralgan .

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Kuy, qo‘sinq ilhombaxsh, shifobaxsh hamda xayotbaxsh kuch” deb ta’kidlagan. Mashxur rus olim – pedagoglardan D.B.Kobalevskiy: “Musiqa tarbiyasi – bu faqat insonnni musiqachi qilib tarbiyalash emas, eng avvalo, yosh murg‘ak bola, so‘ngra shaxsni barkamol xislat va fazilatlar bilan kamol toptirish vazifasini o‘z burchi deb biladi. Musiqa san’atining o‘ziga xos xususiyati uning tovushlar obrazi orqali kishilarning ichki dunyosini, xis-tuyg‘ularni, fikr va kayfiyatlarini ifodalay olishdadir. Musiqa san’atining har xil vaziyatlari orqali ayniqsa, kishining xis-tuyg‘ulariga chuqr ta’sir etadi. Uni tushunishda badiiy asarlarning mazmunini ongli idrok etish bilan bir qatorda emotsiyonal ruhiy idrok etish qobiliyatiga ega bo‘lish ham muhim rol o‘ynaydi. Bilamizki, musiqa asari ham ongli, ham xissiy idrok etilgandagina tinglovchilarda chuqr tessurot qoldiradi, estetik kechinma paydo bo‘ladi. Shu o‘rinda buyuk Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning musiqa ilmini keltirib chiqqargan sabablar haqidagi fikrlarinini qayd etish maqsadga muvofiqdir , -“Men tasdiqlaymanki, substansiya harakatiga ega bo‘lgandan so‘ng ovozga ham ega bo‘ldi va bu ovoz uch turga bo‘linadi; xususan, baland, past va o‘rtacha. Ovozlar to‘g‘risidagi ilm shu ma’noda foydaliki, u o‘z muvozanatini yo‘qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi va muvozanatda bo‘lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligini uchun ham foydalidir”.

Ko‘rinib turibdiki buyuk allomamiz ma’no kasb etgan bu fikrlari musiqa va kuya bo‘lgan e’tiborini yanada oshiradi. Dono xalqimiz o‘z naqlarida – “Nasru nazm, musiqayu, qo‘shig‘u raqs, tasviru sahna, xullas – san’at ma’naviy, ruhiy kamolot cho‘qqilari sari elutuvchi bebaho vositadir”, - deb bejiz ta‘kidlamagan.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, bola tarbiyasida izchil, to‘g‘ri olib borilgan musiqiy tarbiya yosh avlodni go‘zalikka, mardlikka, vatanparvarlikka chorlaydi, salbiy narsalardan nafratlanish hissi tabiatga, kishilarga bo‘lgan mehr-muhabbatni kuchaytirishga yordam beradi. Shunday ekan musiqaviy tarbiya jarayonida o‘quvchilarda yuz beradigan psixologik, fiziologik o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ijobjiy faoliyat ko‘rsatishlarni taqazo etadi degan fikrga kelish mumkin. Chunki o‘rta yoshdagi o‘quvchilar mutatsiya davrini boshdan kechiradilar. Shuning uchun ham ular tovushlarning tiniq va nuqson siz bo‘lishiga erishish uchun vaqtning ko‘p qismini qo‘shiq aytishga emas, tinglanadigan musiqa asarning mazmuni, ulardagi g‘oyaviy motivni to‘g‘ri idrok qila olishga sarflashga qaratmoq lozim. Shundagina o‘quvchilar tovushlarining nafis va tiniq bo‘lishiga, qo‘shiq matnlarining mazmunini to‘g‘ri idrok etib, tushunib olishlariga hamda musiqa tinglash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga sabab bo‘ladi. Bu esa, xar bir o‘qituvchidan ijrochilik mahorati bilan bir qatorda katta pedagogik mahoratga ham ega bo‘lishlikni taqozo etadi.

Ma’lumki, musiqa darslarining o‘ziga xos tomonlari ko‘p bo‘lib, shulardan xor bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash va nota bilan kuylash kabi asosiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Albatta, mazkur dars bosqichlarini mutaxassis bo‘lmagan kishilar bajara olmaydilar. Natijada dars zerikarli bo‘lib, bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishlari susayadi va ular qo‘shiq kuylashdan yiroqlashib qoladilar. Shuni nazarda tutib, bolalarning badiiy tarbiya sohasidagi faoliyatini e’tibordan chetda qoldirmay, har bir fanni o‘z mutaxassisiga topshirish kerak.

Bolalarni musiqa san’atiga qiziqtirish uchun badiiy havaskorlar to‘garagining kamida ta sho‘basini mutaxassis rahbar bilan ta’minlab ishga solish maqsadga muvofiqdir. Masalan, xor, xalq cholg‘u asboblari dastasi, ashula va raqs kabi sho‘balar belgilangan vaqtida ishlab tursa, unga qatnashayotgan bolalarning qalblari quvonchga to‘lib, maktab ularning sevimli maskaniga aylanib boradi.

Umuman olib qaraganda maktabdagi musiqiy tarbiya o‘quvchilarning ma’naviy olamini boyitish bilan birga, ularning ijodiy qobiliyatini ham o‘stirib boradi. Musiqaning sehrli tovushlari hayotni yangi bir bo‘yoqlarda ko‘rsatib, yosh avlodni estetik jihatdan barkamol bo‘lgan kishilar idealiga yaqinlashtirib boradi.

Estetik tarbiyaning samaradorligini oshirish maqsadida pedagogika institutlarining hamma fakultetlarida, ayniqsa o‘zbek filologiyasi fakultetida musiqa san’ati va folklori hamda boshqa san’at turlari ham o‘qitilishi kerak deb hisoblaymiz.

Adabiyot hamisha musiqa bilan birga yashagan. Shu sababli ham adabiyot fakultetlariga xissiyotli va dardli o‘quvchilarni qabul qilish zarur. Ularning, eng avvalo she’riyatidan, biroz bo‘lsada musiqadan ham xabari bo‘lishi kerak. Shundagina u kelgusida yetuk adabiyotchi bo‘la oladi.

Aytishlaricha, ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy yashagan XV-asrda Hirotdan deyarli har bir xonadonda dutor osig‘liq turgan ekan. Binobarin, o‘sha zamonda kattadan-kichik barcha musiqa shaydosi bo‘lgan. To‘la ishonch bilan aytish mumkinki, qo‘shiq-musiqa taronalari tabiiy va rangin ohanglarda yangragan xonadonda inson ma’naviy olami ko‘rk ochadi. Demakki, bizning kelajagimiz bo‘lgan farzandlarimiz qabohat va razolat girdobidan mutlaqo yiroq holda, tabiat in’om etgan yaratuvchilik qudrati ila go‘zallik koshonasini o‘z qo‘llari bilan bunyod etadilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, fan va ijodiy mehnat azaldan san’at bilan hamisha hamoxang yashaydi. Kelajagimiz bo‘lgan yosh avlod go‘zallikning istemolchisigina bo‘lib qolmasligi, balki o‘zi estetik boyliklar yaratilishi o‘ziga va atrofdagi barcha narsalarga go‘zallik bag‘ishlashi kerak. Shu mas’uliyatlari ishga raxmonalik qilish xar bir o‘qituvchining, har birimizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. I.Rajabov. Maqom asoslari.T,1992
2. A.M.Forobiy. Fozil odamlar shaxri.T
3. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari(O‘quv uslubiy qo‘llanma) Toshkent 2020-yil
4. A.Jabborov,S.Begmatova, M.Azamova. O‘zbek musiqasi tarixi. Toshkent 2018- yil